

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

KARABAYEV SANJAR ABDUSAMATOVICH

**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK
ASOSIDAGI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Karabayev Sanjar Abdusamatovich

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish..... 3

Карабаев Санжар Абдусаматович

Совершенствование финансирования инвестиционных проектов в сфере здравоохранения на основе государственно частного партнёрства 37

Karabaev Sanjar Abdusamatovich

Improving the financing of investment projects in the healthcare sector based on public private partnership..... 75

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 80

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

KARABAYEV SANJAR ABDUSAMATOVICH

**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK
ASOSIDAGI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.DSc/Iqt783 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Karimov Narboy Ganiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Jumayev Nodir Xosiyatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Tashmuradova Buvsara Egamovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abdikarimova Dinara Rustamxanovna iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72, faks: (+99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72, faks: (+99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan global o'zgarishlar, aholi sonining o'sishi, yangi kasallik turlarining paydo bo'lishi va tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, uni samarali moliyalashtirish va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda davlatning yagona manba sifatida faoliyat yuritishi yetarli emasligi ayon bo'lib bormoqda. Shu sababli, sog'liqni saqlash sohasida davlat va xususiy sektorning hamkorligi, ya'ni davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti va Banklar platformasi (Health Impact Investment Platform) ma'lumotlariga ko'ra, «2024-yilda jahon bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining umumiy qiymati 9,8 mlrd AQSh dollaridan ortiqni tashkil etib, bu 2023-yilga nisbatan 17% ko'p demakdir». Bu tendensiya sog'liqni saqlash sohasida investitsiya muhitini yaxshilash, loyihalarni moliyalashtirishda innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish, risklarni samarali taqsimlash va barcha ishtirokchilar uchun shaffof shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Jahonda sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlarini belgilash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Loyihalarning xarajat-manfaat tahlili o'tkazish, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning davlat budjetiga ta'sirini baholash, mazkur sohadagi xususiy sektor uchun investitsiyaviy qaytarish koeffitsiyenti me'yorlarini aniqlash, jahon miqyosidagi DXSh loyihalarining solishtirma tahlili masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni yanada takomillashtirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish va ushbu loyihalar bo'yicha riskni taqsimlash metodologiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2030-yilga qadar «30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish»¹, «Xalqaro moliya institutlari bilan O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish»² ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining daromadlilikini aniqlash, ushbu

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ««Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисида» Фармони. ПФ-158-сон 11.09.2023. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ««Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисида» Фармони. ПФ-158-сон 11.09.2023. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида

turdagi loyihalarning davlat budjetiga yukini baholash, moliyalashtirish manbalari tarkibi diversifikatsiyasini yaxshilash ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son «O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-son «Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son «Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va xuquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, World Bank, The Public Private Infrastructure Advisory Facility (PPIAF), Organization for Economic Cooperation and Development (OECD), The APMG Public-Private Partnerships Certification Program, Asian Development Bank's (ADB) Regional and Sustainable Development Department (RSDD), Waseda University (Yaponiya), Keimyung University (Janubiy Koreya), Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy va institutsional asoslarini takomillashtirish (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti), davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xususiy sheriklarning to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarini jalb qilish va risklarni baholash metodologiyasida chegaraviy qiymatlarni belgilash (World Bank), sog‘liqni saqlash tizimida xizmat sifatini yaxshilash maqsadida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanishning samaradorligi asoslangan (Organization for Economic Cooperation and

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida ishlab chiqilgan: <https://ppp.worldbank.org/>; <https://www.ppiaf.org/>; <https://www.oecd.org/>; <https://ppp-certification.com/>; <https://www.waseda.jp/top/en/>; <https://www.kmu.ac.kr/uni/eng/main.jsp>; <https://www.hse.ru/>.

Development (OECD)); davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni moliyalashtirishda davlat budjetiga fiskal yuk riskini baholash va kamaytirish ko'rsatkichlarini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqilgan (Waseda University (Yaponiya)); davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari samaradorligini baholash tadqiq etilgan (Asia-Pacific Economic Cooperation). Jahon banki (World Bank) va Public-Private Infrastructure Advisory Facility (PPIAF) tadqiqotlari natijasida sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishda DXSH modeli davlat budjetiga tushayotgan moliyaviy yukni kamaytirishi, investitsion risklarni samarali taqsimlashi hamda xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishi ilmiy asoslangan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlari natijalariga ko'ra, DXSH loyihalarining muvaffaqiyati institutsional muhit barqarorligi, shaffoflik darajasi va risklarni adolatli taqsimlash mexanizmiga bevosita bog'liq ekani aniqlangan. Shuningdek, normativ-huquqiy bazaning takomillashganligi investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Jahonda sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, "Blended finance", "impact investing", "green bonds" kabi yangi moliyalashtirish instrumentlarining davlat-xususiy sheriklik loyihalaridagi rolini o'rganish; davlat va xususiy sektor o'rtasida xavf-xatarlarni taqsimlash va ularni moliyaviy jihatdan baholash; sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalarining return on investment (ROI), internal rate of return (IRR) kabi ko'rsatkichlarini tadqiq qilish; investorlar uchun sog'liqni saqlash sohasidagi risklar va potensial daromadlarni taqqoslash; investorlar uchun davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari, kafolatlangan daromad kabi moliyaviy rag'batlarning ta'sirini o'rganish; shartnomalarda valyuta xatarlari, inflyatsiya, fors-major holatlar kabi moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni o'rganish; xususiy sherikning loyiha davomidagi moliyaviy mas'uliyati va ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish; davlatning moliyaviy kafolatlarisiz xususiy sherikni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash; moliyaviy barqarorlik va foydalanuvchi haqlari ("user fee")ni optimallashtirish bo'yicha modellarni amaliyotga joriy etish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarni moliyalashtirish, xususan sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalar davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish kabi masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar, xususan H.Buffet, M.Friedman, E.Yeskomb, H.Yurdakul, R.Kamasak, Ye.Dinin C.Sharma, B.Shahi, R.Nurske, S.Chernov, I.Suxanov, A.Hirschman, D.Trajanovski, D.Biehl, J.Avilova, O.Gerasimenko A.Filipkovska⁴ asarlarida tadqiq etilgan.

⁴ Howard W. Buffet and William B. Eimicke. Social value investing: a management framework for effective partnerships, Columbia University Press, 2018; Milton Friedman. The Social Responsibility of Business is Increase its Profits. The New York Times Magazine, 1970; Йескомб Э.Р. Государственно-частное партнерство: основные принципы финансирования (Public-Private Partnership Principles of Policy and Finance.) – М.: Альпина Паблишер, 2015. - 457 с.; Yurdakul, H., & Kamasak, R. (2020). Investment through public private partnership (PPP): The impact of PPP activities on the growth of GDP. Press Academia Procedia, 11, 150e152. <https://doi.org/10.17261/Press.academia.2020.1257>; Матаев Т.М. Формы государственно-частного партнерства при реализаtсии

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan Xayitov S.B., Djumaniyazov U.I., Shavkatov N.Sh., Mamayusupova D.B., Utegenov Q.D., Yunusova S.B., Xomitov K.Z., Qurbonov J., Rajabov O.D., Bekimbetova G.M.⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish, ulardagi moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, xususan sog'liqni saqlash sohasidagi investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida moliyalashtirish shart-sharoitlari, ta'minlashning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari, asosiy xususiyatlari qisman tadqiq etilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishdagi muammolar kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent Kimyo xalqaro universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

инфраструктурных проектов // Государственно-частное партнерство. 2015. Том 1. № 1. С. 9–18; Sharma, C. (2012). Determinants of PPP in infrastructure in developing economies. *Transforming Government: People, Process and Policy*, 6(2), 149e166.; Mr. Bikram Shahi. Impact of Infrastructure Development on Society: A Case Study of the Narayan Municipality ward No. 1, Dailekh. Exam Roll No: 281391 T.U Registration No: 6-2-55-809-2004 Central Department of Rural Development Faculty of Humanities & Social Sciences Tribhuvan University Kathmandu, Nepal. August, 2012, p 6.; Nurske R., Problems of capital formulation in developing countries, Basil Blackwell, Oxford, UK. 1953, p239.; Чернов С.С., Суханов И.С. Вопросы оценки эффективности реализации социально значимых проектов // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. 2016. № 4 (37). С. 92-97.; Hirschmann A.O., The strategy of economic development, Yale University Press, New Haven, CT. 1958, p 96.; Biehl, D., The role of infrastructure in regional policy, OECD, Paris. 1994, p34; Авилова Ж. Н., Герасименко О. А. Сущность, признаки и проблемы развития организационно правовых форм государственно-частного партнерства в России // Вестник БГТУ им. В. Г. Шухова. 2016. № 10. С. 260–266.; Wojewnik-Filipkowska, Anna & Trojanowski, Dariusz. (2013). Principles of Public-Private Partnership Financing – Polish Experience. *Journal of Property Investment and Finance*. 31. 10.1108/JPIF-10-2012-0049.

⁵ Хайитов С.Б. «Ўзбекистон Республикасида барқарор иқтисодий ўтишни таъминлашда давлат-хусусий шериклик механизмини такомиллаштириш». PhD диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022 йил.; У.И.Джуманиязов. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. PhD диссертацияси автореферати, -Т.: ТДИУ -2017й.; Н.Ш. Шавкатов. Давлат-хусусий шериклик амалиётида молиявий муносабатларни ташкил этиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2023-йил. 83 б. Мамаюсупова Д.Б. Давлат-хусусий шериклиги асосида туристик салоҳиятни бошқариш (Фарғона вилояти мисолида). PhD диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022 йил; Утегенов Қ.Д. Қишлоқ хўжалигида давлат хусусий шерикчилиги асосида лизинг муносабатларини такомиллаштириш. PhD диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022; Юнусова С.Б. Давлат хусусий шериклик асосида инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш ва молиялаштиришни ривожлантириш. PhD диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022 йил; Хомитов К.З. Актуальные вопросы кредитования инвестиционных проектов в Узбекистане // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №4. С. 353-358; Kurbonov J., Public and Private Sector Relations for Economic Growth: Evidence from Uzbekistan (March 10, 2016). *European Journal of Business and Management*, Vol. 8, No. 6, 2016; Ражабов О.Д. Соғлиқни сақлашда давлат хусусий шериклик шартларининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисод ва молия (Ўзбекистан), №. 3 (135), 2020, pp. 124-128.; Бекимбетова Г.М. Корхоналар инновацион фаолиятини ривожлантириш шароитида инвестиция лойиҳаларини баҳолаш самарадорлигини ошириш. Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Т.: ТМИ, 2020. 27 б.

Tadqiqotning maqsadi sogʻliqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish boʻyicha ilmiy-uslubiy va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat-xususiy sheriklik loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, amalga oshirish va boshqarish metodologiyasining tashkiliy-huquqiy asoslarini oʻrganish;

sogʻliqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning asosiy modellarini qiyosiy tizimlashtirish;

davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish tendensiyalarini kuzatish, ularni baholash;

Oʻzbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish;

sogʻliqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishga taʼsir etuvchi omillar tahlilini aniqlash va ularning taʼsir darajasiga baho berish;

rivojlangan davlatlarda investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish tajribasini oʻrganish;

rivojlanayotgan davlatlarda sogʻliqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish metodologiyasini tadqiq etish;

MDH mamlakatlarida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini tahlil etish;

sogʻliqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik instituti orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarida tashkiliy-institutsional va iqtisodiy sinergiya multiplikatori hamda risklarini baholash metodologiyasini takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexnizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sogʻliqni saqlash sohasida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sogʻliqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish jarayonida sodir boʻladigan moliyaviy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, tizimli yondashuv, ekspert baholash, statistik va iqtisodiy tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-matematik yondashuv, ekonometrik modellashtirish, monografik tadqiqot, korrelyatsiya, regressiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sogʻliqni saqlash sohasida DXSh loyihasi ulushli moliyalashtirish qiymatini Oʻzbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining avvalgi tartibga solish davri uchun oʻrtacha foiz stavkasi sifatida aniqlash taklif qilingan;

umumiy qiymati 10 million AQSh dollarigacha boʻlgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari konsepsiyasini vakolatli davlat organi bilan kelishilganidan soʻng, besh ish

kuni ichida davlat sherigi tomonidan tasdiqlash asosida moliyalashtirish mexanizmi taklif etilgan;

sog'liqni saqlash sohasida DXSh loyihalari imtiyozli kreditlashni tijorat banklari investor tomonidan kiritiladigan investitsiyalar umumiy hajmining 80 foizidan kam bo'lmagan miqdorida xorijiy investitsiya kiritish sharti bilan amalga oshirishi zarurligi asoslangan;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko'p bo'lmagan marjani qo'shgan holda taqdim etish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

davlat-xususiy sheriklik modellarining zamonaviy turlari tasniflangan;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarda risklarni taqsimlash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni "davlat grantlari+xususiy kapital" tamoyili asosida moliyalashtirishning VGF modelidan foydalanish zarurligi asoslangan;

sog'liqni saqlash sohasida DXSH investisiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishga omillarning ta'siri ekonometrik baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil natijalarining iqtisodiy-matematik usullar vositasida asoslanganligi, olingan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish, nazariy-metodologik va uslubiy apparat hamda mavzuga oid iqtisodiy va moliyaviy usullarni takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar, yo'l xaritalari va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sog'liqni saqlash sohasida DXSh loyihasi ulushli moliyalashtirish qiymatini O'zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining avvalgi tartibga solish

davri uchun o'rtacha foiz stavkasi sifatida aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2019-yil 21-oktabrda tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanma"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05-28/18774-son ma'lumotnomasi). Natijada sog'liqni saqlash sohasida DXSh loyihasi ulushli moliyalashtirish qiymatini aniqlash metodologiyasi takomillashtirilgan;

umumiy qiymati 10 million AQSh dollarigacha bo'lgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari konsepsiyasini vakolatli davlat organi bilan kelishilganidan so'ng, besh ish kuni ichida davlat sherigi tomonidan tasdiqlash asosida moliyalashtirish mexanizmi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 3-ilovasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05-28/18774-son ma'lumotnomasi). Natijada davlat sherigi tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish, xususiy sherikni tanlash, moliyalashtirish va loyihani amalga oshirish mexanizmi takomillashtirilgan;

sog'liqni saqlash sohasida DXSh loyihalari imtiyozli kreditlashni tijorat banklari investor tomonidan kiritiladigan investitsiyalar umumiy hajmining 80 foizidan kam bo'lmagan miqdorida xorijiy investitsiya kiritish sharti bilan amalga oshirishi zarurligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-son "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05-28/18774-son ma'lumotnomasi). Natijada DXSh asosida tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish metodologiyasi takomillashtirilgan.;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko'p bo'lmagan marjani qo'shgan holda taqdim etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 3-ilovasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05-28/18774-son ma'lumotnomasi). Natijada tijorat banklari tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi takomillashtirilgan;

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga doir idoraviy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05-28/18774-son ma'lumotnomasi). Natijada sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishda oid ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirish

metodologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyada bayon qilingan asosiy g'oyalar, fikrlar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ma'ruza qilingan va muhokamada bo'lgan, xususan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan jami 7 dan ortiq ilmiy amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, Uzbekistan Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 231 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi bayon qilingan hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning ilmiy-nazariy, metodologik va huquqiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy, mazkur yo'nalishdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish metodologiyasining tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va modellari ko'rib chiqilgan hamda mazkur bob bo'yicha ilmiy asoslangan tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi – davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi xususiy investitsiyalarni jalb etish usullaridan biri bo'lib, ushbu mexanizmدا davlat va xususiy sherik hisoblangan tomonlar kelishilgan shartnoma bo'yicha uzoq muddatli yoki qisqa muddatli o'zaro hamkorlik olib borgan holda loyihani amalga oshiradi. Bu orqali nafaqat infratuzilma obyektini barpo etishda shartnoma tomonlari sheriklik qiladi, balki uni keyinchalik foydalanish hamda boshqa huquqlarda ham o'zaro hamkorlikni davom ettirishni maqsad qiladi.

E.A.Dinin tomonidan ilgari surilgan mulohazalarga ko'ra, "DXSh loyihalari va uni boshqaruv mexanizmi jamiyatda zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni tashkil etish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini o'rta va uzoq muddatga hamda ayni vaqtda ikki tomonlama manfaatli asosda bo'ladigan davlat va xususiy sektor – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi tuzilma. Ushbu tuzilma orqali loyihalarni boshqarish esa

davlat va xususiy soha egalarini o‘zaro hamkorlik tamoyillari orqali ikki tomonlama boshqaruv tuzilmasidir⁶” degan fikrlarni bildirgan.

Xalqaro Valyuta jamg‘armasi tomonidan berilgan ta’rifda esa “DXSh – davlat tomonidan an’anaviy tarzda ta’minlanadigan infratuzilmaviy aktivlar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan kelishuvdir” deb ta’riflanadi⁷.

M.B.Gerrard esa DXSh – bu xususiy kapitalni o‘ziga jalb qilishni va ba’zan esa ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish yoki davlat aktivlarini boshqarish uchun davlat kapitalini ham jalb qilishni uyg‘unlashtiradi deb ta’kidlaydi⁸.

Richard Hemming DXSh munosabatlari davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham jozibali ekanligi va bunda davlat infratuzilmani qarz olmasdan moliyalashtira olishi, xususiy sheriklikning boshqaruv imkoniyatlari loyihalarda xarajatlarning tejalishiga olib kelishini ta’kidlaydi⁹.

U.I.Djumaniyazov o‘zining “Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari”ga bag‘ishlangan tadqiqot ishida DXSh asosida korporativ boshqaruvni tashkil etish iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning yirik korporativ korxonalari bilan erkin raqobat qilishlariga zamin tayyorlashi hamda davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytiradi va bosimni kamaytiradi, korporativ tuzilmalarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan miqyosda texnika texnologiyalarni, ishchi kuchi va investitsiya mablag‘larini jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishini ta’kidlaydi¹⁰.

S.B.Yunusovaga ko‘ra, “DXSh – bu davlat tomonidan iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish, turini ko‘paytirish, ushbu xizmatlar uchun ajratiladigan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish maqsadida infratuzilma obyektlariga xususiy sektor (yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs va yuridik shaxslar birlashmasi)ni jalb qilish orqali tomonlarning ma’lum muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan hamkorlikdagi faoliyatidir¹¹”.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotdan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, iqtisodiyot va jamiyatning innovatsion-ijtimoiy rivojlanishi mamlakatlarning transport, sog‘liqni saqlash, muhandislik-kommunikatsiya, kommunal-xizmat ko‘rsatish, uy-joy bilan ta’minlash, ta’lim kabi ijtimoiy soha infratuzilmasini samarali faoliyat ko‘rsatishi sharoitiga chambarchas bog‘liq hisoblanadi hamda uning geografik joylashuvi transport xizmatlari eksportidan katta daromad olishga yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz natijasida taklif etilgan ushbu tasnifga ko‘ra, asosan modellar ikki guruhga bo‘linadi: birinchi guruhda infratuzilma obyekt noldan quriladi; ikkinchi guruhda obyekt allaqachon qurilgan bo‘ladi.

⁶ Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е. А. // Общество и экономика. – 2007. – № 5–6. С.111.

⁷ Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.

⁸ Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38.

⁹ Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006

¹⁰ Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, майиюнь, 2017 йил № 3, www.iqtisodiyot.uz

¹¹ Юнусова С.Б. Давлат-хусусий шериклик асосида инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш ва молиялаштиришни ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ. Тошкент шаҳри – 2022 йил. Юнусова Севара Бахтиёр қизи (2).pdf

Eng ko‘p amaliyotda uchraydigan zamonaviy davlat-xususiy sheriklik modellar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval


Davlat-xususiy sheriklik modellarining zamonaviy turlari¹²

Model	Mazmuni
Yangi obyektning dastlabki ko‘rinishida	
DB (loyihalashtirish-qurish)	Bunday holatda xususiy sherik obyektini shartnoma belgilangan bandlarga muvofiq loyihalashtiradi va quradi.
DBM (loyihalashtirish - qurish - texnik xizmat ko‘rsatish)	Bunday holatda xususiy sherik infratuzilma obyektini loyihalash, qurish va texnik xizmat ko‘rsatishni amalga oshiradi, lekin obyektini ekspluatatsiya qilishda ishtirok etmaydi.
DBO (loyihalashtirish - qurish – foydalanishga topshirish)	Bunday holatda xususiy sherik obyektlarini loyihalashtiradi, quradi va boshqaradi, ammo davlatda mulk huquqini saqlab qolinadi.
BOT (qurish – ekspluatatsiya qilish – transfer qilish)	Bunday holatda xususiy sherik uzoq muddatli shartnomaga asoslangan xolda obyektini moliyalashtirish, qurish va boshqarish huquqiga ega bo‘ladi. Shartnoma muddati o‘z yakuniga etishi bilan, mulk huquqi davlatga o‘tkaziladi.
BOO (qurish – egalik qilish – foydalanishga topshirish)	Bunday holatda xususiy sherikda obyektini moliyalashtirish, qurish, boshqarish va cheksiz muddatga mulk huquqi bo‘ladi.
BLT (qurish – lizing – transfer qilish)	Maksimal tavakkalchilikda xususiy sherik obyektini quradi, mulk huquqini davlatga beradi, shundan so‘ng u obyektini ijaraga berish va shartnoma muddati tugaganigacha qadar uni boshqarish, davlat xususiy sherik uchun uzoq muddatli naqd pul kirimini kafolatlab obyektning minimal ish yukini ta‘minlaydi.
BOOT (qurilish – egalik qilish - foydalanish – transfer qilish)	Bunday xususiy sherik obyektini moliyalashtiradi, quradi, egalik qiladi, obyektini ishlatadi yoki ijaraga beradi. Shartnoma muddati tugaganidan keyin uni davlatga qaytaradi.
Takroriy BOOT	Bunday holatda davlat obyektini moliyalashtiradi, qurib bitkazadi va xususiy sherikka sotib yuboradi ya‘ni ekspluatatsiya qilish uchun topshiradi.
Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilishda	
LROT (ijara - rekonstruksiya – foydalanish - davlatga qayta transfer)	Bunday holatda xususiy sherik mavjud obyektini ijaraga oladi, rekonstruksiya qiladi va modernizatsiya qiladi, so‘ngra undan foydalanadi va foyda oladi. Ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan so‘ng foydalanish huquqi davlatga qaytariladi.
BDO (qurilish – modernizatsiya qilish - foydalanish)	Bunday holatda xususiy sherikka mavjud obyekt sotiladi yoki lizinga beriladi. Xususiy sherik obyektini rekonstruksiya va modernizatsiya qiladi va bitim shartlariga binoan xususiy sherik binodan foydalanadi.
BBO (sotib olish - modernizatsiya qilish - foydalanish)	Bunday hususiy sherikka mavjud obyekt sotiladi va xususiy sherik binodan samarali foydalanish uchun obyektini rekonstruksiya va modernizatsiya qiladi.
BROT (qurilish - rekonstruksiya - boshqaruv - uzatish)	Bunday xususiy sherik davlat moliyaviy ko‘magi evaziga obyektini rekonstruksiya va modernizatsiya qiladi. Xususiy sherik shartnoma muddati yakuniga qadar obektdan foydalanadi va daromad ko‘radi.
RLT (rekonstruksiya - lizing - transfer)	Bunday xususiy sherik obyektini rekonstruksiya va modernizatsiya qiladi. So‘ngra, obyekt davlatdan foydalanish uchun ijara yoki lizingga oladi va shartnoma muddati yakuniga qadar obektdan foydalanadi va daromad ko‘radi.
ML (boshqaruv - ijara)	Bunday xususiy sherik obyektidan ma‘lum muddat davomida foydalanadi. Mulkchilik va investitsion majburiyatlar davlat tasarrufida qoladi.

¹² Muallif ishlanmasi

Davlat-xususiy sheriklikning yuqoridagi modellardan tashqari boshqa ko'p modellarni sanashimiz mumkin. Ammo, barcha modellarni bir-biridan asosiy farqi bu ishtirok tomonlarning qanchalik ishtirok etishi, tomonlarning javobgarligi nisbati va har xil turdagi risklar tomonlar o'rtasida bo'linishiga bog'liq bo'ladi.

Sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tasniflangan bo'lib, ushbu xususiyalar sog'liqni saqlash sohasining davlat va jamiyat faoliyatidagi ahamiyati, ushbu sohadagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi muhim sifatlardan kelib chiqib tasniflandi. Ular quyidagi xususiyatlarni o'ziga qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.




1-rasm. Sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari¹³

Sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish va moliyalashtirishda **“davlat sektori va xususiy sektorning o'zaro mas'uliyati”** ta'minlangan bo'ladi. Unga ko'ra, davlat sektori hamda xususiy sektor o'zaro o'rtadagi “shariklik”da har ikki tarafning mas'uliyati, vazifalari, huquq va majburiyatlari shartnomaviy ko'rinishda aniq belgilab beriladi. Davlat tomoni (sektori) ko'p hollarda quyidagi muhim vazifalar (mas'uliyat)ni o'z zimmasiga oladi. Ular quyidagilardir:

¹³ Muallif ishlanmasi

loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi;

loyihani ishlab chiqarish (loyiha oldi hujjatlarini tayyorlash)ga yoki amalga oshirishga bevosita ko'maklashadi:



2-rasm. Sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihasini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish bosqichlari¹⁴


Shu nuqtai nazardan, aholining sihat-salomatlik jarajasini tobora yaxshilash maqsadida zamonaviy, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, birlashgan hamda rivojlangan yaxlit tizimni tashkil etuvchi mexanizm – "sog'liqni saqlash sohasi"ning infratuzilmasini rivojlantirish, sohada investitsiya loyihalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kabilar asosiy ustuvor vazifalardan biri, deb hisoblaymiz.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihasini amalga oshirishda kelib chiqadigan **risklarni taqsimlash tomonlar o'rtasida** amalga oshiriladi. Bu jarayonda uzoq muddatli va kapital talab qiladigan soha sifatida sog'liqni saqlash loyihalari ko'pincha kelib chiqadigan risklarni har ikki tomonga to'g'ri taqsimlashni talab etadi. Davlat sektori o'z tomonidan taqdim etilgan to'g'ridan to'g'ri grantlar hamda beg'araz ko'maklar mablag'lari (yordami) orqali xususiy sektor zimmasidagi risklarni kamaytiradi. Xususiy sektor esa moliyalashtirish riskini o'z zimmasiga oladi va loyiha amalda rentabellikka erishgan holda uning daromadlaridan foydalanadi.

Ushbu holatda quyidagi risklar mavjudligini ta'kilash muhim: moliyaviy risklar, operatsion risklar, qonunchilik va huquqiy risklar, ijtimoiy risklar, tabiiy va ekologik risklar hamda texnik risklar.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

**Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik
asosidagi loyihalarda risklarni taqsimlash
METODOLOGIYASI**



3-rasm. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida risklarni taqsimlash metodologiyasi¹⁵

Xulosa qilganda, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari modellari turli sharoitlarda turlicha. Har bir modelning o'zining afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Loyiha turi, davlatning moliyaviy imkoniyatlari, shuningdek, ijtimoiy talablarga asosan tanlanadi.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning «**Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishning amaldagi holati tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish tendensiyalari aniqlangan. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish boshqarishning amaldagi holati tahlil qilingan. Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishga ta’sir etuvchi omillar tanlanib, ularning ta’sir darajasi baholangan. Tahlil natijalari asoslanib, mazkur bob bo‘yicha umumiy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ularni samarali tarzda amalga oshirishdagi mavjud kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar hozirgi global iqtisodiyotda tobora muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu borada asosiy ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlarimiz asosida ushbu sohada kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar sifatida quyidagilarni e’tirof etamiz:

davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish soni va turlari ortib bormoqda. Sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport, energiya va kommunal xizmatlar sohalarida DXSh loyihalarining sonida tobora o‘shish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Bunda asosiy sabab sohalardagi infratuzilmani yangilash hamda zamonaviylashtirishga bo‘lgan talabning ommalashishidir.

davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish modellarining kuchayib borayotgan diversifikatsiyasi. Loyihalarda gibridd moliyalashtirish, ya’ni “davlat grantlari + xususiy kapital” formati hozirgi kunda keng qo‘llanilmoqda. Bu mexanizm bo‘yicha davlatlar loyihalarni moliyalashtirishga xalqaro moliya institutlari, misol uchun Jahon banki yoki Osiyo taraqqiyot banki hamkor sifatida jalb qilinmoqda. Xususan, Hindistonda davlat yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarga 20-40% miqdorida grant beradi, qolgan qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi (“Viability Gap Funding (VGF)”).

“Davlat grantlari + xususiy kapital” asosidagi moliyalashtirishning sog‘liqni saqlash sohasida qo‘llanish imkoniyatlari:

davlat grantlari innovatsion tibbiy texnologiya va mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlaydi. Xususiy sektor ularni tijoratlashtirish hamda bozorga chiqarish uchun mablag‘ ajratishi imkonini beradi;

tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda davlat tomonidan grantlar yo‘naltirilishi, xususiy sektor zamonaviy tibbiy muassasalarni qurish uchun investitsiyalarni jalb qiladi;

davlat grantlari ijtimoiy sog‘liqni saqlash dasturlariga, masalan, aholining sog‘liq holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga yo‘naltirilsa, xususiy kapital esa ularni qo‘llab-quvvatlash va tijoratlashtirish orqali yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi, deb ta’kidlaymiz.

Sog‘liqni saqlash sohasida “davlat grantlari + xususiy kapital” asosida loyihalarni moliyalashtirish afzallik va kamchiliklari:

“Davlat grantlari + xususiy kapital” asosidagi moliyalashtirish modelining afzalliklari va kamchiliklari¹⁶

Afzalliklar	Kamchiliklar
Moliyalashtirishning ko‘p manbalari: Keng qamrovli moliyalashtirish va loyiha uchun ko‘proq mablag‘ jalb qilinishi.	Qat’iy talablar va shartlar: Davlat grantlari ko‘pincha aniq shartlarga ega bo‘lib, murojaat qilish qiyin bo‘lishi mumkin.
Riskni kamaytirish: Davlat grantlari xususiy kapitalning riskini kamaytirishga yordam beradi.	Hususiy kapitalning daromad talablari: Xususiy kapital investorlari, ko‘pincha, tijorat natijasini va daromadni talab qiladi.
Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash: Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilishga yordam beradi.	Qat’iy hamkorlik muammolari: Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi manfaatlar bir-biriga mos kelmasligi mumkin.
Tijoratlashtirish va iqtisodiy samara: Loyihalarning bozorga chiqishini tezlashtirish va foydali natijalarga erishish.	Loyiha riski: Loyiha muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, davlat granti bekor bo‘lishi va xususiy kapital yo‘qolishi mumkin.
Infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda samaradorlik: Infratuzilma, tibbiyot va sog‘liqni saqlash loyihalarini tez va samarali amalga oshirish.	Iqtisodiy foyda va samaradorlikning pasayishi: Davlat granti ijtimoiy yoki ekologik maqsadlarga yo‘naltirilsa, xususiy sektor tijorat foydasini yuqori qo‘yadi.
Jamoat-xususiy sheriklikni kuchaytirish: Davlat va xususiy sektorning hamkorligi loyihalarni kuchaytirish va yaxshilashga yordam beradi.	Byurokratiya va tartiblar: Davlat grantlarini olish jarayonida byurokratiya va katta hujjat ishi talab qilinadi.
Barqarorlik va uzoq muddatli natijalar: Loyihalarning ijtimoiy va ekologik samaradorligiga erishish imkoniyati.	Qiyin muloqot va aloqalar: Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari loyihaning kechikishiga olib kelishi mumkin.

Jahon baxining ma’ulmotlariga ko‘ra¹⁷, dunyo COVID-19 “samarasi”dan so‘ng ham past hamda o‘rta daromadli davlatlarda yalpi ishlab chiqarish o‘sish ko‘rsatkichlarini qayd etgan. Xuddi shu sababdan infratuzilma tarmoqlarini yaxshilash va rivojlantirish uchun xususiy sektor tomonidan investitsiya majburiyatlarini bajarishda birqancha yutuqlarga erishilgan. Jumladan, pandemiyadan keyin infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish va ularni oldingi holatiga tiklashda davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali 263 ta loyiha asosida umumiy qiymati 91,7 mlrd AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar kiritilgan. Loyihalarning umumiy qiymati past hamda o‘rta daromadli mamlakatlar YaIMning o‘rtacha 0,25 foiziga teng.

Pandemiyadan so‘ng boshlangan Ukrainadagi urush, mintaqada davlatlaridagi energetika inqirozining kuzatilganligi sababli Yevropa hamda Markaziy Osiyoda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish, ushbu loyihalarga investitsiyalarni kiritishda sezilarli kamayish tendensiyasi ham kuzatilgan:

¹⁶ Muallif ishlanmasi


¹⁷ Jahon Bankining ma’lumotlari: Private Participation in Infrastructure (PPI) 2022 Annual Report. <https://ppi.worldbank.org/>

Dunyo mintaqalari bo'yicha davlat-xususiy sheriklik loyihalari tendensiyalari, 01.01.2023-yil¹⁸

Mintaqa nomi	Davlat-xususiy sheriklik loyihalari ko'rsatkichlari		
	Loyihalar umumiy qiymati (mlrd AQSh doll.)	Mintaqa mamlakatlari YaIM hajmi (mlrd AQSh doll.)	Mintaqa mamlakatlari YaIMdagi ulushi, %
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	43,374	20 751,7	0,21
Yevropa va Markaziy Osiyo	3,321	3 517,3	0,09
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	24,328	4 585,1	0,53
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	1,969	1 490,4	0,13
Janubiy Osiyo	13,869	4 088,7	0,34
Sahroi Kabir Afrikasi	4,864	1 919,4	0,25

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Yevropa va Markaziy Osiyo, Sahroi Kabir Afrikasidan tashqari deyarli barcha mintaqalarda o'tgan yilga nisbatan davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Sharqiy Osiyo va Tinch okeani, Lotin Amerikasi hamda Karib havzasi davlatlarida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar bo'yicha investitsiyalar koronavirus pandemiyasidan oldingi darajaga yetib olganligi ahamiyatlidir.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining asosiy xususiyatlari bo'lgan infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilganligidir.



4-rasm. Past va o'rta daromadli davlatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalariga kiritilgan investitsiyalar tahlili¹⁹

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan 78 ta loyiha bo'yicha umumiy qiymati 43,4 mlrd AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar jalb etilgan. Bu borada, eng yuqori ko'rsatkich, ya'ni mintaqada amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalari bo'yicha jalb etilgan investitsiyalarning 30 foizidan ortig'i Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu davlatdagi davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar asosan infratuzilma tarmoqlarining avtomobil yo'llar sohasiga to'g'ri kelgan.

¹⁸ Jahon Bankining ma'lumotlari: Private Participation in Infrastructure (PPI) 2022 Annual Report. <https://ppi.worldbank.org/>

¹⁹ Jahon Bankining ma'lumotlari: Private Participation in Infrastructure (PPI) 2022 Annual Report. <https://ppi.worldbank.org/>

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirilgan loyihalarning umumiy hajmi quyidagicha:

4-jadval

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy tahlili²⁰

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	O‘zgarishi, %
Jami loyihalar soni	978	1 134	+15,9
qiymati 1 mln dollargacha bo‘lgan loyihalar soni	796	891	+11,9
qiymati 1 mln dollardan ortiq bo‘lgan loyihalar soni	182	243	+33,5
Umumiy qiymati, trln so‘m	268,3	365,1	+36,07
YaIMga nisbatan, %	22,2	25,1	+13,06
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan, %	75,3	71,3	-5,3

2023-yilda umumiy qiymati 268,3 trln so‘mlik 970 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2024-yilda oldingi yilga nisbatan loyihalar soni deyarli 16 foizga ortgan. O‘z navbatida, moliyalashtirish hajmi ham 36 foizdan ortiqqa ortgan. 2024-yilda moliyalashtirilgan loyihalar qiymati YaIMga nisbatan 22,2 foizni, 2024-yilda 25,1 foizni tashkil etgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmiga nisbatan ushbu ko‘rsatkich ulushi 2023-yilda 75 foizdan ortiqni, 2024-yilda 71,3 foizni tashkil etgan. Moliyalashtirish hajmi o‘shining asosiy sabablaridan biri, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishdagi investitsion va huquqiy muhitning yaxshilanib borayotganligi va o‘tgan davrda orttirilgan tajriba hisoblanadi.

5-jadval

2024 yildagi davlat-xususiy sheriklik loyihalar yo‘nalishlari²¹

Yo‘nalishlar nomi	Loyihalar soni	Qiymati, mlrd doll.	Ulushi, %
Energetika	68	339 848	93,1
Ekologiya	67	1 262	0,3
Ijtimoiy soha obyektlarining istish tizimlarini modernizatsiya qilish	175	1 184	0,3
Kommunal	1	16 856	4,6
Sog‘liqni saqlash	57	640	0,2
Suv xo‘jaligi	514	401	0,1
Ta‘lim	144	2 887	0,8
Transport	2	1 017	0,3
Boshqalar	106	986	0,3
Jami	1 134	365 079	100

2024-yilda davlat-xususiy sheriklikda amalga oshirilgan loyihalar yirik soha – energetika sohasida amalga oshirilgan. Xususan, ushbu yo‘nalishda umumiy qiymati 339 848 mlrd so‘mlik 70 ga yaqin davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirilgan. Ularning umumiy moliyalashtirish hajmidagi ulushi 93,1 foizni

²⁰ Manba: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari (2026-2028 yillar uchun fiskal strategiya: fiskal_strategiya_2026-2028_4hxRGwi.pdf).

²¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari (2026-2028 yillar uchun fiskal strategiya: fiskal_strategiya_2026-2028_4hxRGwi.pdf).

tashkil qilgan. Boshqa sohalar, jumladan, sog‘liqni saqlash sohasidagi jami 57 ta loyihalarning umumiy hajmi 640 mlrd so‘mni tashkil etgan.

2024-yilda soliqni saqlash sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishda mahalliy tashabbuskorlar o‘rni muhimdir. Ularning ulushi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning umumiy qiymati 640,0 mlrd so‘mni tashkil etgan.

6-jadval

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida davlat xususiy sheriklik loyihalari to‘g‘risida tahliliy ma’lumot²²

Loyiha amalga oshirilgan hudud		Loyiha qiymati (mlrd so‘mda)
Maxalliy tashabbuskorlar		
Qoraqalpog‘iston		5,2
Andijon		27,7
Buxoro		10,4
Qashqadaryo		6,2
Navoiy		11,3
Namangan		78,3
Samarqand		36,1
Sirdaryo		43,5
Surxondaryo		35,9
Toshkent viloyati		38,6
Farg‘ona		154,1
Xorazm		16,3
Toshkent shahri		176,4
Jami:		422,0
Xorijiy tashabbuskorlar		
Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha nomi	2025 yil uchun reja qilingan loyihalar (mln dollar)
Surxondaryo	“Markazlashgan laboratoriya” tashkil etish	0,78
Toshkent shahri	“Tibbiy laboratoriya” tashkil etish	0,73
	“Gemodializ xizmati markazlari” yaratish va xizmat ko‘rsatish	11,00
	“Reabilitatsiya markazi” tashkil etish	5,13
	“Nurli terapiya markazi” tashkil etish	5,88
Jami:		23,5

Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektor tomonidan 2025-yil uchun Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida o‘rta hajmli loyihalarni moliyalashtirish nazarda tutilgan.

Quyida sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirishga ta‘sir etuvchi asosiy 10 ta omilning o‘zaro korrelyatsiya matritsasi raqamli shaklda taqdim etilmoqda. Bu raqamlar ekspert baholash asosida modellashtirilgan hisoblanadi.

²² Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili²³

Omil nomi	Belgilanishi	Regressiya koeffitsiyenti (β)	Korrelatsiya darajasi (r)	Ta' sir turi	Izoh
Davlat siyosati va qonunchilik	X ₁	+0.25	+0.85	Kuchli ijobiy	Qonunbuzarlik va huquqiy bazaning mustahkamligi sarmoyaga ta'sir qiladi
Moliyaviy resurslar mavjudligi	X ₂	+0.20	+0.80	Ijobiy	Sarmoyadorlar va bank tizimi imkoniyatlari moliyalashtirishni kuchaytiradi
Ijtimoiy talab	X ₃	+0.18	+0.75	Ijobiy	Aholining tibbiy xizmatga ehtiyoji loyiha zarurligini oshiradi
Texnologik rivojlanish	X ₄	+0.22	+0.78	Ijobiy	Yangi uskunalar, IT-infrastruktura loyiha samaradorligini oshiradi
Siyosiy barqarorlik	X ₅	+0.27	+0.90	Kuchli ijobiy	Barqaror siyosiy muhit investorlar uchun ishonchli poydevor yaratadi
Moliyaviy cheklovlar	X ₆	-0.30	-0.85	Kuchli salbiy	Budjet kamomadi, inflyatsiya va resurs yetishmasligi salbiy ta'sir qiladi
Huquqiy korrupsiya	X ₇	-0.24	-0.72	Salbiy	Korrupsiya xususiy sheriklarning ishonchini pasaytiradi
Demografik o'zgarishlar	X ₈	+0.15	+0.60	Ijobiy	Aholi soni, qarish va migratsiya tibbiy infratuzilmaga ehtiyojni oshiradi
Ekologik talablar	X ₉	+0.10	+0.45	O'rtacha ijobiy	Sog'lom muhit talablari loyihalarni diversifikatsiyaga undaydi
Xalqaro yordam va sarmoyalar	X ₁₀	+0.23	+0.88	Kuchli ijobiy	Xalqaro tashkilotlar va Tashqi MQLarning yordami moliya manbai hisoblanadi

Yuqoridagi tahlillar orqali quyidagi ushbu model tenglamasi tuzildi:

$$Y = \beta_0 + 0.25X_1 + 0.20X_2 + 0.18X_3 + 0.22X_4 + 0.27X_5 - 0.30X_6 - 0.24X_7 + 0.15X_8 + 0.10X_9 + 0.23X_{10} + \varepsilon$$

Bu model orqali har bir omilning umumiy ta'siri baholanadi. Masalan, korrupsiya darajasining yuqoriligi (HK) salbiy ta'sir ko'rsatadi ($\beta < 0$), siyosiy barqarorlik esa ijobiy ta'sirga ega.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishni samarali tashkil etish,

²³ Muallif hisob kitoblari.

jamiyatning real ehtiyojlariga javob beradigan, moliyaviy barqaror va uzoq muddatli foyda keltiradigan tizim yaratishni talab etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samarali faoliyati ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi va har bir omilning roli ma'lum darajada farq qiladi.

Birinchi navbatda, davlat siyosati, huquqiy baza va siyosiy barqarorlik asosiy ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ajralib turdi. Ularning yuqori korrelyatsiya darajalari va regressiya koeffitsiyentlari, mazkur omillar xususiy sektorning ishonchi va ishtirokini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Mazkur omillar yuqori institutsional sifat, shaffoflik va barqaror huquqiy muhitni yaratish orqali xususiy sarmoyani jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchi muhim guruh - moliyaviy resurslar, xalqaro sarmoyalar va texnologiyalarning mavjudligi bilan bog'liq omillardir. Ushbu omillar loyihalarning to'g'ridan to'g'ri moliyalashuviga va zamonaviy yechimlar orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Moliyalashtirishning diversifikatsiyasi, bank tizimi barqarorligi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik darajasi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish jarayonida muhim hal qiluvchi omillardan biridir.

Xulosa qilish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha tizimli, kompleks va strategik yondashuvni joriy etish talab etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Davlat-xususiy sheriklik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribalari**» deb nomlanib, unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan. Ularda sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Ushbu davlatlar tajribalarining ijobiy tomonlarini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Rivojlangan davlatlarda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish samarali va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Buyuk Britaniya tajribasi. Ushbu mamlakat davlat-xususiy sheriklik modelini amalga oshirishda ilk va eng katta tajribaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. 1992 yilda Buyuk Britaniyada "Private Finance Initiative" (PFI) deb nomlangan davlat-xususiy sheriklikning yangi modeli joriy etildi. Bu tashabbus davlat va xususiy sektorni umumiy ijtimoiy manfaatlariga xizmat qiladigan loyihalarni hamkorlikda amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lib, dunyodagi ko'plab mamlakatlar uchun namunaviy tajribaga aylandi. Buyuk Britaniya tajribasining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat moliyalashtirish mexanizmini o'zgartirdi, balki jamoat boshqaruvi, xizmat ko'rsatish sifati va natijaga qarab baholash tizimini ham takomillashtirdi. Masalan, sog'liqni saqlash sohasida PFI orqali qurilgan shifoxonalar nafaqat zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlandi, balki xususiy sheriklar tomonidan samarali boshqaruv va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari ham joriy etildi.

Buyuk Britaniyada sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullari²⁴

Moliyalashtirish manbasi	Tavsifi	Qo‘llash misollari
Xususiy kapital sarmoyasi	Loyiha uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy moliya institutlaridan mablag‘	PFI, SEP loyihalari
Dolzarb ijara to‘lovlari	Davlat tomonidan xizmatlar uchun har oylik/yillik to‘lov	NHS LIFT va PFI shartnomalari
Bank kreditlari	Qurilish bosqichida xususiy sherik tomonidan banklardan olinadi	Barclays, HSBC kabi banklar ishtirokida
Investor obligatsiyalari	Moliya bozorida loyihaga tegishli obligatsiyalar chiqarish	UCLH, Birmingham Hospitals PFI loyihalari
Davlat kafolati (support)	O‘ta muhim loyihalar uchun davlat kafolati orqali riskni kamaytirish	Strategik obyektlarda qo‘llaniladi

Buyuk Britaniyada sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1-mexanizm: Private Finance Initiative (PFI) - xususiy moliyalashtirish tashabbusi. PFI – davlat infratuzilma loyihalari uchun xususiy sektordan moliyaviy resurslar jalb etishni nazarda tutadi. Xususiy sherik infratuzilmani qurish, jihozlash va belgilangan muddatda xizmat ko‘rsatishni zimmasiga oladi, davlat esa faqat uzoq muddatli to‘lovlar orqali xizmat uchun to‘laydi. Ushbu moliyalashtirish mexanizmining asosiy xususiyatlari shundaki, davlat o‘z budjetiga darhol yuklama olmaydi, xususiy sherik qurilish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi, shartnomalar 20-30 yilgacha tuziladi, xizmat sifatiga bog‘liq ravishda davlat to‘lov amalga oshiradi (availability payments). Ushbu mexanizm asosida umumiy qiymati 92 million funt sterling bo‘lgan “University College London Hospital (UCLH)” PFI loyihasi xususiy sektor tomonidan qurilgan.

2-mexanizm: NHS LIFT (Local Improvement Finance Trust) – mahalliy darajadagi sog‘liqni saqlash infratuzilmasini yangilashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi. PFI dan farqli ravishda kichikroq va modul asosidagi obyektlarni qamrab oladi. LIFTCo – davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi yuridik shaxs, xususiy sherik asosiy sarmoyani amalga oshiradi, NHS obyektlarini ijara asosida foydalanadi. Ushbu mexanizm asosida “Alfred Barrow Health Centre (Cumbria)” loyihasi NHS LIFT orqali amalga oshirilgan bo‘lib, mahalliy aholi uchun integratsiyalashgan tibbiy xizmatlar taqdim etilmoqda.

3-mexanizm: Strategic Estates Partnership (SEP) – sog‘liqni saqlash muassasalari uchun strategik infratuzilma rivojlantirish shakli. Unda xususiy sherik loyiha rivojlanishi, moliyalashuvi, qurilishi va boshqaruvda ishtirok etadi. Ushbu mexanizmning asosiy xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda: NHS va xususiy sherik 50/50 ulushda qo‘shma korxonalar tashkil etadi, har ikki tomon strategik

²⁴ Muallif ishlanmasi.

rejalar va xizmatlarni belgilaydi, har bir loyiha alohida moliyalashtiriladi, budget yoki xususiy sarmoya bilan.

AQSh tajribasi. Mamlakatda sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda turli xil mexanizmlardan foydalaniladi. Har bir loyiha muayyan ehtiyoj, loyiha masshtabi hamda davlat-xususiy sektor munosabatiga qarab alohida tanlanadi.

9-jadval

AQShda sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari²⁵

Mexanizm nomi	Qisqacha tavsifi	Loyihalar	Afzalliklari
Availability Payments	Xususiy sektor loyihani qurib, boshqarib beradi; davlat esa foydalanishga to‘lov qiladi	Martin Luther King Jr. Outpatient Center	Davlat uchun budget rejalaruvi oson, xizmat kafolati bor
Tax-Exempt Private Activity Bonds	Xususiy sheriklar uchun soliq imtiyozli obligatsiyalar orqali moliya jalb etiladi	Cedars-Sinai Medical Center	Investorlar uchun jozibali, sarmoya oqimini ko‘paytirish
Medicaid Managed Care Payments	Davlat Medicaid dasturini xususiy sug‘urta kompaniyalari orqali amalga oshiradi	Florida Managed Care Program	Samaradorlikni oshiradi, budget tejaladi
Lease-Purchase Agreements	Xususiy sektor shifoxona qurib, davlat uni muddatli ijara orqali sotib oladi	Texas Health Resources Projects	Davlat moliya bosimisiz obyektga ega bo‘ladi
Grant + Private Capital Mix	Federal grantlar xususiy sarmoya bilan birlashtiriladi	OneCity Health – NYC DSRIP	Moliya manbalari diversifikatsiya qilinadi
Service Contracts with Performance Pay	Xizmat ko‘rsatishda natijaga qarab to‘lov amalga oshiriladi	Kaiser Permanente bilan sheriklik	Sifatga rag‘bat, raqobat muhiti yaratiladi

AQSh tajribasi shundan dalolat beradiki, sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik nafaqat infratuzilmani yangilash, balki tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish, davlat xarajatlarini tejash va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatida strategik ahamiyat kasb etadi.

Fransiya tajribasi. Fransiyada yo‘l-transport infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha rivojlantirishga harakatlar 50 yil oldin konsessiya shartnomalari shaklida paydo bo‘la boshlagan. Keyingi o‘n yil mobaynida avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 8 barobar oshirilgan hamda konsessiya shartnomalari asosida qurilgan yo‘llarning ulushi umumiy yo‘l uzunligida 67%ni tashkil etgan. Bugungi kun kelib, Fransiyada 10 000 km dan ortiq yo‘llar mavjud va ularning 70%dan ortig‘i konsessiya shartnomalariga asosan qurib bitkazilgan. Fransiyada DXShlarning muvaffaqiyati kaliti sifatida 2004-yilda “raqobatli muloqot” konsepsiyasining kiritilishi ko‘rib kelinadi. Bu konsepsiya asosan, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirokchilari safiga ham xususiy investorlar, ham davlat ishtirokchilar qatnashishi hamda ikkisi ham manfaatdor bo‘lgan yechim bu

²⁵ Muallif ishlanmasi.


loyiha uchun eshutilishni boshlagan. Bundan tashqari, Yevropa sudi ham erkin savdo va raqobatni qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud tizimga to‘g‘rilashlar kiritdi, bu esa davlat korxonalarining monopoliyasini kamayishiga olib keldi.

Fransiyada davlat-xususiy sheriklikning turli xil shakllari mavjud. Bulardan asosiy ikkisi: shartnomaviy va institutsional shakllaridir:

shartnomaviy shakli - bu konsessiya shartnomasi bo‘lib, unga ko‘ra obyekt ustida ishlar va xizmatlarni bajarish huquqi turli tomonlarga beriladi. Tarixan infratuzilma obyektlarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sheriklar kapitalining nisbati birinchisining ulushining o‘sishi foydasiga o‘zgargan. Bu esa o‘z navbatida hozirda katta hajmdagi DXSh loyihalarini talab qilinadigan katta mablag‘ bilan amalga oshirish imkonini beradi;

institutsional shakl - bu davlat va xususiy sheriklar tomonidan umumiy xo‘jalik yurituvchi subyektni tashkil etish hisoblanishidir.

Xitoy tajribasi. Sog‘liqni saqlash sohasida 2014-yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng joriy etilgan. So‘nggi o‘n yillikda davlat-xususiy sheriklik asosida 300 dan ortiq tibbiy infratuzilma loyihalari amalga oshirilgan. Ushbu model ikkinchi va uchinchi darajali kasalxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishga talab yuqori bo‘lgan hududlarda joylashgan. Xususan, 2022-yilda «Chengdu Tianfu International Hospital» loyiha Chendu shahri, Sichuan provinsiyasida amalga oshirilgan. Ushbu loyihani amalga oshirishda “DBFO (Design–Build–Finance–Operate)” modelidan foydalanilgan. Umumiy qiymati 2.4 milliard yuan (340 mln AQSh dollari) hisoblanadi. Mazkuz davlat-xususiy sheriklik loyihasi moliyalashtirish tarkibi quyidagicha:



5-rasm. Sichuan provinsiyasida amalga oshirilgan «Chengdu Tianfu International Hospital» DXSh loyihasi moliyalashtirish tarkibi²⁶

Loyihani amalga oshirish natijasida ilg‘or tibbiyot markazida 2023-yilda 150 mingdan ortiq bemor qabul qilingan.

²⁶ Manba: Chengdu BOE Hospital | Chengdu-Expat.com

Xitoyda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning umumiy ko‘rsatkichlari²⁷

Loyiha nomi va joyi	Loyiha turi	Qiymati (yuan)	Xususiy sherik	Moliyalashtirish manbalari	Asosiy natijalar
Foshan 4th People's Hospital (Guandun)	BOT	1.2 mlrd	China Resources Healthcare	60% xususiy, 30% davlat, 10% jamg‘arma	1000 o‘rinli kasalxona, telemeditsina, 7.2% ROI
Chengdu Tianfu Int. Hospital (Sichuan)	DBFO	2.4 mlrd	Evergrande Health Group	70% xususiy, 20% bank krediti, 10% subsidiya	1200 o‘rin, 2000 ish o‘rni, Germaniya uskunolari
Ping An Good Doctor (Shanxay)	Digital Health PPP	500 mln	Ping An Insurance	80% xususiy, 20% davlat granti	1 mln foydalanuvchi/kun, raqamli xizmat
Wuhan Smart Health Platform (Xubey)	eHealth PPP	400 mln	Huawei	60% xususiy, 40% davlat	EMR, 3 mln foydalanuvchi, tez yordam vaqt qisqardi
Changsha Rehab Center (Xunan)	BOO	800 mln	Mindray Healthcare	75% xususiy, 25% davlat subsidiyasi	600 o‘rin, psixologiya va reabilitatsiya markazi
Guangxi Biotech Park (Guansi)	Cluster PPP	~1.5 mlrd	Johnson & Johnson, Sinovac	50% xususiy, 30% kafolat, 20% ADB granti	Vaksina ishlab chiqarish, tibbiy turizm rivoji

Loyihalarning moliyalashtirilishi asosan quyidagi manbalar orqali amalga oshirildi:

davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash loyihalarning asosiy moliyalashtirish manbai bo‘lib, ko‘plab loyihalar davlat grantlari orqali amalga oshirildi.

xususiy sektorning investitsiyalari loyihalarning moliyalashtirilishida muhim rol o‘ynadi. Bu investitsiyalar orqali zamonaviy tibbiy uskunalar va texnologiyalar joriy qilindi.

Janubiy Koreya tajribasi. Bu mexanizm natijasida mamlakat nafaqat o‘z aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minladi, balki sog‘liqni saqlash sohasida “eksportbop” innovatsiyalar ham yaratdi: raqamli kasalxona tizimlari, elektron tibbiy ma‘lumotlar bazalari, masofaviy diagnostika platformalari va tibbiy sun‘iy intellekt tizimlari orqali sog‘liqni saqlash modelini boshqa davlatlarga eksport qila boshladi. Shu jihatdan ushbu davlat tajribasi O‘zbekiston uchun o‘ta dolzarb.

Sog‘liqni saqlash sohasida gibril yondashuv moliyalashtirish manbalarining aralash modeli. Quyidagi muhim xususiyatlar namoyon bo‘ladi:


davlat tomonidan bevosita yoki kafolatlangan moliyalashtirish (subsidiya, grant, yoki daromad kafolati);

xususiy investorlar tomonidan kiritilayotgan sarmoya (qurilish, boshqaruv yoki xizmat ko‘rsatish uchun);

boshqa manbalar (masalan, bank kreditlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jamoat obligatsiyalari) birgalikda ishtirok etadi.


²⁷ Muallif tadqiqotlari natijasida tuzilgan.

Janubiy Koreyada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda GIBRID YONDASHUV



6-rasm. Janubiy Koreyada sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda gibridd yondashuv²⁸

2020-2024-yillarda Janubiy Koreyada gibridd davlat-hususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish orqali raqamli tibbiyotga investitsiya kiritish hajmi doimiy o‘sib borgan:



7-rasm. Janubiy Koreyada davlat-hususiy sheriklik loyihalari orqali raqamli tibbiyotga kiritilgan investitsiya hajmi, mln AQSh doll.²⁹

2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 780,0 mln AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan. 5 yildan so‘ng moliyalashtirish hajmi bazis yilga nisbatan 46 foizdan ziyodga ortgan, ya‘ni 2024-yilda 1 mlrd 150 mln AQSh dollarni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning to‘tinchi bobi «Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari» deb nomlanib, unda sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik instituti orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish moliyaviy-

²⁸ Muallif ishlanmasi.

²⁹<https://www.intralinkgroup.com/ko-KR/Latest/Blog/April-2022/South-Korea-big-opportunities-for-digital-health-f>

iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan. Iqtisodiy sinergiya multiplikatori, risklarini baholash metodologiyasi va moliyalashtirish mexnizmini takomillashtirish tadqiq etilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rib o'tish mumkin:

iqtisodiy samaradorlikni baholash – bu yo'nalish davlat va xususiy sheriklar tomonidan loyihaga kiritiladigan investitsiyalardan kutilayotgan iqtisodiy natijalarni aniqlashga qaratilgan. Iqtisodiy samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltirish o'rinlidir:

11-jadval

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari³⁰

Ko'rsatkich nomi	Formula	Izoh	Baholash mezon
NPV – sof joriy qiymat	$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I$	Barcha kutilgan pul oqimlari (daromad) diskont qilinib, boshlang'ich sarmoya summasidan ayiriladi.	NPV > 0 – loyiha foyda keltiradi
IRR – Ichki foiz stavka	$0 = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - I$	NPV nolga teng bo'ladigan foiz stavkasi. Bu foiz loyihaning investitsiyaviy daromadlilikini ko'rsatadi.	IRR > WACC – investitsiya maqsadga muvofiq
PI – profit indeks	$PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t}}{I}$	Loyihaning diskontlangan foydasining sarmoyaga nisbati.	PI > 1 – loyiha daromadli
Payback Period – qoplash muddati	$Payback\ Period = \frac{Boshlang'ich\ investitsiya\ (I)}{Yillik\ sof\ pul\ oqimi\ (CF)}$	Investitsiyaning necha yilda qoplanishini ko'rsatadi.	Qoplanish muddati qanchalik qisqa bo'lsa – yaxshi
ROI – investitsiya foydasi	$ROI = \frac{Net\ profit}{Total\ investment} \times 100\%$	Daromad va sarmoyaning nisbati.	ROI > 0 – investitsiya foyda keltirmoqda
CBA – xarajat-foyda tahlili	$CBA = \frac{Total\ benefits}{Total\ Costs}$	Haqiqiy va kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy foyda va xarajatlar taqqoslanadi.	CBA > 1 – ijobiy samaradorlik
WACC – kapital o'rtacha bahosi	$WACC = \frac{E}{V} \cdot Re + \frac{D}{V} \cdot Rd \cdot (1-T)$	E – aksiyalar, D – qarz, V – umumiy kapital. Re, Rd – foiz stavkasi. T – soliq stavkasidan tashqari.	IRR > WACC bo'lishi shart
EBITDA – amaliy foyda	$EBITDA = Revenue - Expenses\ (tax, interest, amortization)$	Faoliyatdan oldingi foyda. Qarz va soliqlardan oldingi daromadni ko'rsatadi.	Musbat bo'lishi daromadlilik belgisi
Operating Margin – operatsion foyda	$Operating\ Margin = \frac{Operating\ Profit}{Revenue} \times 100\%$	Asosiy faoliyatdan olinayotgan foyda foizi.	Yuqori foiz – samarali boshqaruv
DPP – diskontlangan qoplanish vaqti	$DPP = n + \frac{Qoplanmagan\ summa}{(n+1)yildagi\ diskontlangan\ CF}$	Odatiy Payback Period'dan farqli, vaqtning pul qiymatini inobatga oladi.	DPP ≤ loyiha muddati – investitsiya maqsadli

³⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonida ko‘plab moliyaviy ko‘rsatkichlardan keng qo‘llaniladiganlardan biri – bu NPV (sof joriy qiymat) hisoblanadi. U investitsiya loyihasidan kelajakda kutilgan barcha pul oqimlarining hozirgi vaqtga diskontlangan qiymatlari summasi hisoblanadigan ko‘rsatkichdir:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CF_t}{(1+r)^t} \quad (1)$$

bu yerda: CF_t - t-yildagi (yoki boshqa vaqt birligidagi) daromadlar (pul oqimi); r - diskont stavkasi, ya’ni kapitalning imkoniyat qiymati yoki risk darajasi; T - loyiha muddati (yillar soni).

IRR (Internal Rate of Return) yoki ichki qaytish stavkasi loyihaning pul oqimlari uchun diskont stavkasi. U loyihaning NPV ko‘rsatkichi nolga teng bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni, IRR loyihaning investor uchun minimal qabul qilinadigan daromad darajasi sifatida qaraladi:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} = 0 \quad (2)$$

bu yerda: CF_t – t yildagi pul oqimi ; T – loyiha muddati (yillar soni); IRR – ichki qaytish stavkasi, ya’ni diskont stavkasi; t - vaqt indeksi (odatda yillarda).

WACC ko‘rsatkichi loyiha uchun o‘rtacha sarmoyalash qiymatidir (kapitalning o‘rtacha og‘irliklik narxi). Ushbu ko‘rsatkich investorlar uchun sarmoya qaytarish darajasini aks ettiradi va loyiha investitsiyalari uchun minimal kutilgan daromad darajasi sifatida xizmat qiladi:

$$WACC = \frac{E}{V} \times R_E + \frac{D}{V} \times R_D \times (1 - T_c) \quad (3)$$


bu yerda: E - o‘z kapitali (equity) miqdori; D - qarz kapitali (debt) miqdori; $V = E + DV$ - umumiy kapital miqdori; R_E - o‘z kapitali uchun kutilgan daromad (cost of equity); R_D - qarz kapitali uchun kutilgan daromad yoki qarz bo‘yicha stavka (cost of debt); T_c - soliq stavkalarining ta’siri (corporate tax rate).

Samaradorlik ko‘rsatkichlarining amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida umumiy qiymati o‘n million AQSh dollaridan ortiq ekvivalentdagi davlat va xususiy sheriklik loyihasini moliyalashtirishda diskont usullar: sof diskont daromad (NPV), foydalilikning ichki normasi (IRR), xarajatlarni qoplashning diskontlangan muddatini hisoblash, kapital o‘rtacha qiymatining hisob-kitobi (WACC) usuli yordamida samaradorlikni baholash maqsadga muvofiq.

PI ko‘rsatkichi nafaqat umumiy daromadni, balki shu daromadning sarmoyaga nisbatan miqdorini ham ko‘rsatadi. Bu loyihaning samaradorligini xolis baholashda muhimdir. PI ko‘rsatkichini hisoblash formulasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t}}{I_0} \quad (4)$$

bu yerda: CF_t – loyihadan t-chi yilda keladigan naqd oqimi; r – diskont stavkasi (kapital qiymati); n – loyiha muddati (yillar soni); I_0 – dastlabki investitsiya xajmi.



8-rasm. Sog'liqni saqlash sohasida DXSh investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasi³¹

³¹ Muallif ishlanmasi.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda quyidagi muammolar aniqlandi:

12-jadval

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muammolar³²

Muammo	Asos
1. Huquqiy-me'yoriy bazaning mukammal emasligi	
Sohani tartibga soluvchi qonunchilik hali ham shakllanish bosqichida. Amaliyotda bir qator tushunmovchiliklar bor.	“Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun 2019 yilda qabul qilingan bo‘lsa-da, unga oid ko‘plab tahliliy va ijro mexanizmlari yetarli ishlab chiqilmagan. Masalan, shartnoma turlari, ularning tuzilish tartibi, to‘liq siklli baholash mexanizmlari aniq belgilanmagan.
2. Institutsional mexanizmlar va mas’ul tashkilotlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari	
DXSh loyihalarida qatnashuvchi davlat organlari o‘rtasida aniq vazifalar taqsimoti va samarali hamkorlik mexanizmlari yo‘q.	Masalan, bir xil loyiha bo‘yicha viloyat hokimliklari va sohaviy vazirliklar o‘rtasida vakolatlar bir-biri bilan kesishadi. Har bir tashkilotning qarama-qarshi yondashuvlari loyiha jadvalini kechiktiradi. 2023 yilda AOKning ma’lumotlariga ko‘ra, tasdiqlangan 100 dan ortiq DXSh loyihalarining 40% vaqtida boshlanmagan.
3. Malakali kadrlar yetishmasligi	
DXShning iqtisodiy, yuridik va moliyaviy xususiyatlarini to‘liq tushunib ishlaydigan mutaxassislar soni juda kam.	Joylardagi davlat tashkilotlari va mahalliy hokimiyatlarda DXSh bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar yo‘q. Xususiy investorlar davlat tomoni bilan malaka jihatidan teng munosabat o‘rnata olmasligi sabab, ko‘p hollarda tashabbuslar to‘xtab qolmoqda.
4. Loyihalarni moliyalashtirishda muammolar	
O‘zbekistonda uzoq muddatli, past foizli moliyaviy resurslarning yetishmasligi xususiy sheriklarning ishtirokini cheklamoqda.	Mahalliy banklarda DXSh loyihalari uchun kerakli miqdordagi resurslar yo‘q, shu bois tashqi moliyalashtirishga tayanishga to‘g‘ri keladi. Ammo xorijiy investorlar uchun davlat kafolatlari yoki valyuta xavflarini bartaraf etish mexanizmlari yo‘qligi sabab, loyihalarga qiziqish past.
5. Tender jarayonlarida shaffoflik muammolari	
DXSh loyihalari bo‘yicha tenderlar o‘tkazish jarayonida shaffoflik va adolat prinsiplari har doim ham ta’minlanmaydi.	“e-PPP” elektron platformasi orqali barcha tenderlar amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘pgina tenderlar yopiq yoki tanlab o‘tkaziladi. Auditorlik va jamoatchilik nazoratining yetarli darajada emasligi bu jarayonlarga ishonchni kamaytiradi.
6. Shartnomalarda xavflar va mas’uliyatlarning noaniq taqsimoti	
DXSh shartnomalarida davlat va xususiy sherik o‘rtasida xavf va daromadlar qanday taqsimlanishi aniq ko‘rsatilmagan.	Masalan, qurilishdagi kechikish, inflyatsiya, valyuta kursining o‘zgarishi, aholi qarshiligi kabi xavflar qaysi tomonga yuklatilishi aniq emas. Bu holatda xususiy sektor xavfni o‘z garovida deb hisoblab, loyihalarga kirishishdan bosh tortmoqda.
7. Jamoatchilikning yetarli darajada jalb qilinmaganligi	
Loyihalar aholi manfaatiga daxldor bo‘lsa-da, jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmi mavjud emas.	Masalan, 2022–2024 yillardagi infratuzilma loyihalari bo‘yicha ko‘pgina hollarda aholi roziligi so‘ralmagan yoki faqat formal tarzda o‘tkazilgan. Bu esa aholi noroziligi, sud ishlari va loyihaning to‘xtab qolishiga olib kelgan.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlar asosida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexnizmini takomillashtirish quyidagilar taklif etiladi:

³² Muallif ishlanmasi.

1) Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat banking 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan marjani qo‘shgan holda taqdim etish maqsadga muvofiq;

2) Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishda davlat sherigi tomonidan umumiy qiymati o‘n million AQSh dollariga qadar bo‘lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sherikchilik loyihasining konsepsiyasi vakolatli davlat organi bilan kelishilgandan so‘ng 5 kun muddatda tasdiqlash lozim;

3) Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikchilik loyihasi ulushli moliyalashtirish qiymatini O‘zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining avvalgi tartibga solish davri uchun o‘rtacha foiz stavkasi sifatida aniqlash natijasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikchilik loyihasi ulushli moliyalashtirish qiymatini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Davlat-xususiy sherikchilik doirasida sog‘liqni saqlash sohasidagi investitsiya loyihalarining moliyalashtirish tarkibida davlatning ulushi aniqlanishi lozim. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining foiz stavkalari qo‘llanilib, loyihaning davlat tomonidan moliyalashtirilishi uchun zarur mablag‘ miqdori hisoblanadi. O‘rtacha foiz stavkasini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan suveren xalqaro obligatsiyalarining avvalgi tartibga solish davrida amal qilgan foiz stavkalari tahlil qilinadi. Bu foiz stavkalarining o‘rtacha qiymati loyihani moliyalashtirishda davlatning kredit resurslari uchun sarflashi kerak bo‘lgan mo‘ljallangan foiz stavkasi sifatida qabul qilinadi. Ulushli moliyalashtirish qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{Ulushli moliyalashtirish qiymati} = \text{Loyiha umumiy qiymati} \times \left(\frac{\text{O'rtacha suveren obligatsiyalar foiz stavkasi}}{100} \right) \quad (5)$$

Bu yerda:

loyiha umumiy qiymati – sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihasining umumiy sarmoyasi;

o‘rtacha suveren obligatsiyalar foiz stavkasi – avvalgi tartibga solish davrida aniqlangan, foizlarda ifodalangan stavka.

Bu usul davlatning moliyaviy ishtirokini obyektiv va adolatli baholash imkonini beradi. Davlat budjetiga tushadigan yuk va moliyaviy xavflar ilmiy usulda aniqlanadi. Ulushli moliyalashtirish loyihaning barqarorligini ta‘minlash uchun muhim bo‘ladi.

Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida kredit liniyalari bo‘yicha foiz stavkalarini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking asosiy stavkasi miqdorida belgilash hamda ushbu stavkaga tijorat banklari tomonidan 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan marjani qo‘shish orqali kredit resurslarini taqdim etish mumkin. Bunda foiz stavkasini hisoblash formulasi quyidagicha boladi:

Kredit foiz stavkasi:

$$i = i_{MB} + m \quad (6)$$

bu yerda: i_{MB} – Markaziy bankning asosiy stavkasi, m – tijorat bankining marjasi ($\leq 2\%$)

13-jadval

Sog'liqni saqlash sohasida DXSh loyihalarini kredit liniyalari bo'yicha moliyalashtirish mexanizmi³³

Bosqich nomi	Mas'ul tashkilotlar	Amalga oshirish mazmuni	Kutiladigan natija
Normativ-huquqiy asos yaratish	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Sog'liqni saqlash vazirligi	Kredit stavkasi: MB asosiy stavkasi + 2% marja limitini belgilovchi qaror/qonun loyahasini ishlab chiqish	Kreditlar uchun yagona tartib o'rnatiladi
Kredit liniyalari uchun alohida yo'riqnoma ishlab chiqish	Markaziy bank, tijorat banklari	DXSh loyihalari uchun past foizli kreditlar shartlari, muddatlari va garov talablari belgilab beriladi	Banklar uchun aniq ko'rsatmalar paydo bo'ladi
DXSh loyihalarining moliyaviy baholash standartlarini yaratish	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSh tuzimasi	Loyihaning rentabellik, xavf, oqim, qaytarish muddatlarini baholash bo'yicha yagona metodikani joriy etish	Adolatli baholash va investorlarga ishonch
Tijorat banklariga foiz marjasini 2% bilan cheklash	Markaziy bank	Banklardagi barcha kredit mahsulotlarida DXSh loyihalari uchun marja limitini majburiy qilish	Kredit narxi oshirilmasligi ta'minlanadi
Xususiy investorlar uchun ariza qabul qilish va tanlov	Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSh tuzimasi, Sog'liqni saqlash vazirligi	Loyihalar bo'yicha investorlar tanlanadi, tender/teknik talablar belgilanadi	Eng samarali loyihalar saralanadi
Kredit resurslarini taqsimlash	Tijorat banklari	Ariza, moliyaviy hujjatlar, biznes-reja asosida kredit berish	Loyiha uchun real moliyalashtirish boshlanadi
Kredit monitoringi va auditi	Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSh tuzimasi markazi	Kredit o'zlashtirilishi, maqsadli sarflanishi, jadvalga amal qilinishi nazorat qilinadi	Kreditlardan samarali foydalanish
Loyihaning qurilish va ekspluatatsiya bosqichini kuzatish	Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSh tuzimasi markazi	Loyiha bo'yicha qurilish, jihozlash, xizmat ko'rsatish sifatini baholash	Sifatli tibbiy xizmat ta'minlanadi
Hisobot va samaradorlik monitoringi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi	Har chorakda loyiha bo'yicha moliyaviy va texnik hisobotlarni yig'ish	Barqarorlik va natijadorlik nazorati
Yakuniy baholash va qo'shimcha moliyaviy rag'batlar	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Yutuqli loyihalar uchun soliq imtiyozlari yoki qo'shimcha kredit liniyalari berilishi	Yangi loyihalarga rag'bat yaratiladi

Ushbu ilmiy yangilik natijasida tijorat banklarining foiz qo'shimchasi 2% bilan cheklanadi. Bu umumiy kredit stavkasini 3–5% gacha kamaytirishi mumkin. Tijorat banklariga 2% marja yetarli daromad beradi, risklar oshmaydi. Natijada foiz stavkasini kamaytirish orqali sog'liqni saqlash loyihalarining moliyaviy yukini yengillashtirish, tijorat banklari tomonidan ortiqcha foiz qo'shishni cheklab,

³³ Muallif ishlanmasi.

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, DXSh loyihalariga kirib kelayotgan xususiy sektor ishtirokini kengaytirish imkoniyati oshadi.

Xulosa qilganda, Davlat-xususiy sheriklik loyihalari sog‘liqni saqlash sohasida infrastrukturani takomillashtirish, tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish hamda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni samarali tashkil etishga qaratilgan muhim investitsiya mexanizmidir.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirish sohasida ilmiy-nazariy, metodologik va huquqiy asoslarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

2. O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish holatini tahlil qilish orqali mazkur sohadagi mavjud muammolar va imkoniyatlar ochiqlab berildi.

3. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishda innovasion moliyaviy mexanizmlarni joriy etish va milliy xususiyatlarga moslashtirish zarurligi ta’kidlandi.

4. Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish va ushbu sohadagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun maxsus strategiya va kompleks mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

5. Davlat-xususiy sherikchilikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning o‘zaro majburiyatlari va rollarini aniq belgilash loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim shart hisoblanadi.

6. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

7. Moliyaviy va iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ilg‘or metodologiyalarni joriy etish hamda risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining barqarorligini ta’minlaydi.

8. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishda huquqiy jihatlarni yanada mustahkamlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

9. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, davlat-xususiy sherikchilik asosida moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallab, sog‘liqni saqlash sohasida xizmatlarning sifatini va ko‘lamni oshirishda katta imkoniyatlar beradi.

10. Davlat-xususiy sherikchilik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish uchun jamiyat, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik, shaffoflik va hisobdorlik tizimlarini yaratish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.23.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ КИМЁ

КАРАБАЕВ САНЖАР АБДУСАМАТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
докторской диссертации (DSc) по экономическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.3.DSc/Iqt783.

Диссертация выполнена в Ташкентском международном университете Кимё.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.rscs.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	Каримов Нарбой Ганиевич доктор экономических наук, профессор.
Официальные оппоненты:	Жумаев Нодир Хосиятович доктор экономических наук, профессор Ташмурадова Бувсара Эгамовна доктор экономических наук, профессор Абдикаримова Динара Рустамхановна доктор экономических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/2025.27.12.I.23.01 при Ташкентском государственном экономическом университете «_____» _____ 2026 года. Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (998971) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (+99871) 239-28-72, факс: (+99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года
Протокол реестра за № от «_____» _____ 2026 года.

С.У. Мехмонов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Наблюдаемые в мировой экономике глобальные изменения, рост численности населения, возникновение новых видов заболеваний и увеличение потребности в медицинских услугах обуславливают необходимость дальнейшего развития системы здравоохранения, её эффективного финансирования и совершенствования на основе инновационных подходов. При этом становится очевидным, что участие государства в качестве единственного источника ресурсов является недостаточным. В связи с этим особую значимость приобретает сотрудничество государства и частного сектора в сфере здравоохранения, то есть инвестиционные проекты на основе государственно-частного партнёрства. Согласно данным Всемирной организации здравоохранения и Платформы банков по инвестициям в здравоохранение (Health Impact Investment Platform), «в 2024 году общий объём проектов государственно-частного партнёрства, реализованных в сфере здравоохранения в мире, превысил 9,8 млрд долларов США, что на 17% больше по сравнению с 2023 годом». Данная тенденция требует улучшения инвестиционного климата в сфере здравоохранения, использования инновационных финансовых инструментов при финансировании проектов, эффективного распределения рисков и создания прозрачных условий для всех участников.

В мировой практике уделяется особое внимание научным исследованиям, направленным на анализ финансирования инвестиционных проектов в сфере здравоохранения на основе государственно-частного партнёрства, выявление существующих проблем и разработку практических предложений и рекомендаций по их устранению, определение предельных значений показателей эффективности инвестиционных проектов, а также совершенствование механизмов финансирования социально значимых инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнёрства. Проводятся научные исследования, направленные на проведение анализа «затраты–выгоды» проектов, оценку влияния финансирования инвестиционных проектов в сфере здравоохранения на основе государственно-частного партнёрства на государственный бюджет, определение нормативов коэффициентов инвестиционной отдачи для частного сектора, а также на проведение сравнительного анализа проектов ГЧП в мировом масштабе. В Узбекистане особое внимание уделяется дальнейшему совершенствованию финансирования инвестиционных проектов в сфере здравоохранения на основе государственно-частного партнёрства, привлечению финансовых ресурсов международных финансовых институтов для их реализации, а также совершенствованию методологии распределения рисков по данным проектам.

В качестве приоритетных задач определены: привлечение «30 миллиардов долларов инвестиций в рамках государственно-частного партнёрства к 2030 году»¹, «Создание фонда для развития проектов государственно-частного партнёрства в Узбекистане с международными

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030». № ПФ-158 от 11.09.2023. «О стратегии «Узбекистан – 2030». ПФ-158-сон 11.09.2023. «Узбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида

финансовыми институтами»². В рамках реализации данной задачи одним из приоритетных направлений рассматриваются определение доходности инвестиционных проектов, финансируемых на основе государственно-частного партнёрства, оценка их нагрузки на государственный бюджет, а также совершенствование диверсификации структуры источников финансирования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-16 от 30 января 2025 года «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан-2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»», № УП-37 от 21 февраля 2024 года «О Государственной программе «Год поддержки молодежи» по реализации Стратегии «Узбекистан-2030»», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан-2030»», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-308 от 30 августа 2024 года «О мерах по развитию государственно-частного партнерства в Республике Узбекистан на 2024-2030 годы», № ПП-4290 от 16 апреля 2019 года «О мерах по развитию государственно-частного партнерства в сфере здравоохранения», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 720 от 30 октября 2024 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию и комплексной систематизации сферы государственно-частного партнерства», а также в других нормативно-правовых документах в данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республике. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³. Научные исследования, связанные с совершенствованием финансирования инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнёрства в сфере здравоохранения, проводятся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе Всемирным банком, Центром консультирования по вопросам государственно-частного партнёрства в инфраструктуре (The Public Private Infrastructure Advisory Facility, PPIAF), Организацией экономического сотрудничества и развития (OECD), Программой сертификации в области государственно-частного партнёрства (The APMG Public-Private Partnerships Certification Program), Региональным департаментом устойчивого развития Азиатского банка развития (ADB, RSDD), Waseda University (Япония), Университетом Кеймен (Южная Корея), а также Национальным исследовательским университетом «Высшая школа экономики» (Российская Федерация).

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии „Узбекистан – 2030“». ПФ-158 от 11.09.2023. «О Стратегии „Узбекистан – 2030“». ПФ-158-сон 11.09.2023. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида

³ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе следующих источников: <https://ppp.worldbank.org/>; <https://www.ppiaf.org/>; <https://www.oecd.org/>; <https://ppp-certification.com/>; <https://www.waseda.jp/top/en/>; <https://www.kmu.ac.kr/uni/eng/main.jsp>; <https://www.hse.ru/>.

